

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN»



Urganch davlat pedagogika instituti
rektori *J.R. Yarmetov* v.v.b. J.R. Yarmetov

“03” 07 2023-yil

IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI

KIRISH SINOVIDA “BIOLOGIYA” FANI BO‘LGAN
BARCHA TA‘LIM YO‘NALISHLARI(KO‘ZI OJIZLAR) UCHUN DASTUR

Urganch-2023

Dastur Urganch davlat pedagogika instituti ilmiy-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va maqullangan. 2023 yil 3 iyuldagi № 10 - sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

UrDPI, O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i
X.Siddiqov

UrDPI, “Pedagogika, boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi
X.Salavatova

Taqrizchilar:

UrDU, “Biologiya” kafedrası dotsenti
Z.B.Allaberganova

UrDU, “Biologiya” kafedrası dotsenti
Yu.A.Djumaniyazova

2023 - 2024 o'quv yilida oliy o'quv yurtiga kiruvchilar uchun Biologiya fanidan (ko'zi ojiz abituriyentlar uchun) imtixon dasturi savollari va baholash mezozi

Biologiya fani tirik organizmlar haqidagi fan bo'lib, uning o'rganish ob'ekti o'simliklar, hayvonlar, zamburug'lar, bakteriyalar, viruslar va odam hisoblanadi. Shuning uchun abituriyentlar bu organizmlarning tuzilishi rivojlanishi ko'payishi hamda tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyatini bilishi kerak.

Botanika

O'simliklar xilma-xilligi va ahamiyatini, vegetativ organlar-ildiz, poya, bargning tuzilishi, generativ organlar-gul, meva, urug' tuzulishini, o'simlik uchun ahamiyatini. Changlanish, urug'lanish, meva va urug'larning tarqalishi. O'simliklar sistematikasi. Bir va ikki urug' pallalilar sinflarini, ularning asosiy oilalarini: ra'nodoshlar, gulxayridoshlar, karamdoshlar, tomatdoshlar, qovoqdoshlar, burchoqdoshlar, tokdoshlar, ziradoshlar, qoqidoshlar, loladoshlar, piyozdoshlar, bug'doydoshlar. Bakteriyalar, zamburug'lar, suv o'tlari, yuksak sporali o'simliklar.

Zoologiya

Hayvonot olamining xilma-xilligi, tarqalishi, sistematikasi. O'zbekistonda tarqalgan hayvonlarning xilma-xilligi. Hayvonat dunyosi bo'yicha ish olib borgan olimlarni. Umurtqasiz va umurtqalilarning asosiy tiplari, sinflari va xarakterli vakillarini tuzilishini. Sodda hayvonlar, bo'shliqichlilar, yassi chuvalchanglar, to'garak chuvalchanglar, halqali chuvalchanglar, mollyuskalar, bo'g'imoyoqlilar, xordalilar tipi. Hayvonot olamning tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati.

Odam va uning salomatligi

Odam va uning salomatligi kursining maqsad va vazifalarini. To'qimalar va ularning tuzilishi, xillari, vazifasi. Organlar sistemasini boshqarilishi. Barcha organlar sistemasi. Tayanch harakatlanish sistemasi. Qon. Qon aylanish sistemasi. Nafas olish sistemasi. Ovqat hazm qilish. Moddalar va energiya almashinuvi. Ayirish sistemasi. Teri. Ichki sekretsia bezlari. Nerv sistemasi. Oliy nerv faoliyati. Sezgi organlari. Odamning paydo bo'lishi.

Umumiy biologiya

Organik olamning xilma-xilligi. Jonli va jonsiz tabiatning o'xshashligi va farqi. Hayotning hujayrasiz va hujayraviy shakllari. Prokariot va eukariotlar. Hujayraning tuzilishi, asosiy organoidlari, funksiyalari. Hujayraning kimyoviy tarkibi. Oqsillar, uglevodlar, yog'lar, nuklein kislotalar. Oqsil biosintezi. Fotosintez. Irsiyat qonunlari. O'zgaruvchanlik va uning xillari. Odam genetikasi. Seleksiya. Evolyutsiya g'oyalari paydo bo'lish tarixi. O'rta Osiyoda tirik tabiat haqidagi tushunchalarning paydo bo'lishi. K.Linney, J.B.Lamarkning

Evolyutsiyaga oid ishlari. Ch.Darvinning Evolyutsion ta'limoti. Evolyutsiyaning harakatlantiruvchi kuchlari. Sun'iy tanlash. Zot va navlarning kelib chiqishi va xilma-xilligi. Moslanishlar. Mikro Evolyutsiya va makro Evolyutsiya. Evolyutsiya dalillari. Evolyutsiyaning asosiy yo'nalishlari.

Savolnoma

1. O'simlik ildizi. Ildizning tuzilishi va turlari.
2. Hujayra. Hujayraning o'rganilish tarixi, tuzilishi
3. Odam organizmidagi ovqat hazm qilish sistemasining tuzilishi va funksiyasi.
4. Gulli o'simliklarning hayotiy shakllari.
5. Ildizmevalar va ularning ahamiyati.
6. Bargning poyada joylashuvi.
7. Shakli o'zgargan yer osti novdalar.
8. Poya. Poyalarning xilma-xilligi, ichki tuzilishi.
9. O'simliklarning o'g'itlashning ahamiyati o'g'itlarning turlari.
10. Barg. Oddiy va murakkab barglar.
11. Nuklein kislotalarning kashf etilish tarixi, tuzilishi, xillari, vazifasi.
12. Odam skeleti. Suyaklarning tuzilishi va xillari
13. Vegetativ ko'payish turlari.
14. Gulning tuzilishi va turlari.
15. Oqsil biosintezi va uning ahamiyati.
16. Soxta oyoqlilar sinfining asosiy vakillarining tuzilishi, nafas olishi va oziqlanishi.
17. Infuzoriyalar sinfining o'ziga xos xususiyatlari.
18. Gidraning tuzilishi va rivojlanishi.
19. Bir hujayrali suvo'tlari va ularning tuzilishi.
20. Chuchuk suvlarda tarqalgan ko'p hujayrali suvo'tlarining tuzilishi va ularning tabiatdagi ahamiyati.
21. Ra'noguldoshlar oilasi. Oila vakillarining hayotiy shakli, bargi, ildizi, poyasi.
22. O'simliklarning changlanish jarayoni.
23. Parazit chuvalchanglar va ularning yashash muhiti.
24. Qushlarning tashqi va ichki tuzilishi.
25. Yashil bronza qo'ng'izining tashqi va ichki tuzilishi
26. Odam tayanch harakatlanish sistemasining tuzilishi.
27. Muskullar ishi haqida ma'lumot bering.
28. Odam organizmining katta va kichik qon aylanish doirasi.
29. Odam terisining tuzilish va funksiyasi.
30. Odam bosh miyasining tuzilishi.

31. Shartli va shartsiz reflekslar.
32. Odam organizmidagi ta'm va hid bilish organlarining tuzilishi.
33. Hayotning hujayrasiz shakllari.
34. Hujayra va uning organoidlarining vazifasi.
35. Hujayraning kimyoviy tarkibi.
36. Organizmning individual rivojlanishi.
37. Mitoz va meoz fazalarining o'zaro o'xshashlik va farqli xususiyatlari.
38. Mendelning irsiyat qonunlari.
39. Seleksiyaning maqsad va vazifalari.
40. Yashash uchun kurash haqida gapiring.
41. Tabiiy tanlanish va uning shakllari.
42. Tur va uning mezonlarining ahamiyati.
43. Ekologiyaning maqsad vazifalari nimadan iborat.
44. Abiotik va biotik omillar.
45. Biosfera chegaralari va uning ahamiyati.
46. Moslanishlar va uning xillari.
47. Uglevodlar almashinuvining ahamiyati.
48. Yog'lar almashinuvining ahamiyati.
49. Jins genetikasi haqida ma'lumot bering.
50. Genlarning o'zaro ta'siri.

Baholash mezonlari.

Ko'zi ojizlar uchun ijodiy imtihon besh balli baholash tizimi bo'yicha baholanadi. Ko'zi ojizlar uchun kirish imtihonlari og'zaki tarzda o'tkaziladi va har bir imtihon biletiga ikkitadan nazariy savol kiritiladi. Imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:

1. Abituriyentning javobi 5 ("a'lo")ga baholanishi uchun: mavzuning mohiyatini to'g'ri anglagan bo'lishi mulohazalar yuritilishi, mavzuni mustaqil fikr asosida bayon qilishi; fakt va misollardan o'rinli foydalanib, to'g'ri xulosalar chiqara olishi; mavzu doirasidagi barcha masalalarni qamrab olishi; talab darajasidagi tabiiy va iqtisodiy biologik bilimlarga ega bo'lishi; nutqi ravon bolib, fikrini toliq ifodalay bilishi zarur.

2. Abituriyentning javobi 4 ("yaxshi")ga baholanishi uchun: mavzu mohiyatini atroflicha, ijodiy yondashuv asosida yoritishi; mustaqil fikrlashga intilishi; fikrlarini izchil ifodalash qobiliyatiga ega bo'lishi; nutqida mantiqiylik, ravonlik ko'zga tashlanib turishi; manbalardan, fakt va misollardan o'rinli foydalana olishi; biologik savodxonligi yetarli bo'lishi; fikrini to'g'ri, maqsadga muvofiq ifodalay bilishi lozim.

3.Abituriyentning javobi 3 (“qoniqarli”)ga baholanishi uchun: mavzu mohiyatini chuqurroq ochib berishi; biologik jarayonlar haqidagi tasavvuri qoniqarli darajada bo`lishi; biologik voqea-hodisalarni idrok eta bilishi, fikmi izchil ifodalashga intilishi; fikr bayoni va uslubi ravon, mantiqiy bo`lishi; fakt va misollardan to`g`ri foydalanib, to`g`ri xulosalar chiqara olishi; fikrini to`g`ri ifodalashga intilishi kerak.

4.Abituriyentning javobi quyidagi hollarda 2 (“qoniqarsiz”)ga baholanadi: mavzu mohiyatini yetarli darajada ochib berolmasa; tabiiy va ijtimoiy biologik haqida muayyan tasavvurga ega bo`lmasa; fikrni ifodalashda g`alilik uchrashi; abituriyentning mavzu yuzasidan tasavvuri yuzaki bo`lsa; fikrlash doirasi tor bo`lsa; fikr bayoni izchil bo`lmasa; nutqida ravonlik, mantiqiy muvofiqlik kuzatilmasa.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan ijodiy imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Qabul komissiyasi ma'sul kotibi:

E.Xudoynazarov